


№ 03-03/1-330

15.07.2026-y

“TASDIQLAYMAN”



J.A. Qo'chqorov

2026-yil “15” iyul

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Idoralararo tarif komissiyasining
37-son yig'ilish bayoni**

2026-yil “15” iyul

Toshkent sh.

Raislik qildi: J.A. Qo'chqorov O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri, komissiya raisi

Ishtirok etdilar: Komissiya a'zolari, vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari rahbarlari
(ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

Tabiiy gazning narx va tariflari, shuningdek elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va sotish tariflarini qayta ko'rib chiqish

(Qo'chqorov, Xodjayev, Mamadaminov, Arashov, Abdugafarov, Istamov, Mustafayev, Qo'chqorov)

Kun tartibidagi masala, tabiiy gazning narx va tariflari, shuningdek elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va sotish tariflarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg'i-energetika tarmog'ida tarif siyosatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2024-yil 15-iyundagi 337-son qarori bilan tasdiqlangani “Elektr energiyasi uchun tariflarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi va “Tabiiy gaz uchun tariflarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi nizomlar asosida tayyorlangan tegishli hisob-kitob materiallari ishchi organ (Iqtisodiyot va moliya vazirligi) tomonidan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi a'zolariga taqdim etildi.

Idoralararo tarif komissiyasi a'zolari ishchi organ tomonidan taqdim etilgan materiallar bilan tanishib chiqdilar.

Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika resurslari narxlarini belgilash to‘g‘risida” 2026-yil 15-maydagi 243–son qaroriga asosan 2026-yil 1-iyundan yoqilg‘i-energetika resurslarining yangi narxлари kuchga kirganligi sababli tabiiy gazning amaldagi narx va tariflari, shuningdek, elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va sotish tariflarini **qayta ko‘rib chiqish zarur hisoblanadi.**

Taqdim etilgan materiallar ko‘rib chiqilib, muhokama qilingandan so‘ng **quyidagilar ovozga qo‘yildi:**

1) Neft-gaz tarmog‘i korxonalarining tabiiy gaz narxi va tariflarini 1-ilovaga muvofiq;

2) Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va sotish tariflarini 2-ilovaga muvofiq tasdiqlash;

3) Yoqilg‘i-energetika tizimining tegishli korxonalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlanayotgan narx va tariflarni o‘rnatilgan tartibda e‘lon qilish.

Ovoz berish natijalari:

“Rozilar” – 7 ta, “Qarshilar” – yo‘q, “Betaraflar” – yo‘q.

Idoralararo tarif komissiyasi qaror qiladi:

1) Neft-gaz tarmog‘i korxonalarining tabiiy gaz narxi va tariflari **1-ilovaga** muvofiq;

2) Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va sotish tariflari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin;

3) Yoqilg‘i-energetika tizimining tegishli korxonalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlanayotgan narx va tariflar o‘rnatilgan tartibda e‘lon qilinsin.

Tabiiy gaz narxi va tariflari

ming kub metr uchun

T/r	Sotuvchi	Sotib oluvchi	Narx va tarif <i>(QQS hisobga olingan holda)</i>
1.	“UzGasTrade” AJ	“Hududgazta’minot” AJ	1 390 000 so‘m
2.	“UzGasTrade” AJ	“O‘ztransgaz” AJ (o‘z ehtiyojlar uchun)	1 600 000 so‘m
3.	“O‘ztransgaz” AJ (transportirovka xizmati)	“UzGasTrade” AJ va boshqalar	195 000 so‘m*
4.	“Hududgazta’minot” AJ (transportirovka xizmati)	talabga muvofiq	240 000 so‘m

Izoh:

* Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga asosan boshqa tariflar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomada ko‘zda tutilgan tariflar qo‘llaniladi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va sotish TARIFLARI

so'mda

T/r	Korxona nomi	1 kVt-soat uchun tariflar (QQS hisobga olingan holda)
I. Elektr energiyasini ishlab chiqarish tariflari		
1	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	834
2	“Talimarjon IES” AJ	579
3	“Angren IES” AJ	947
4	“Yangi-Angren IES” AJ	828
5	“Navoiy IES” AJ	
5.1	“O‘zenergotsotish” AJ uchun	887
5.2	“Navoiyazot” AJ uchun	832
6	“Taxiyatosh IES” AJ	957
7	“Toshkent IES” AJ	1 126
8	“O‘zbekgidroenergo” AJ	522
II. Elektr energiyasini transportirovka qilish tarifi		
1	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ	98
III. Elektr energiyasining yagona xarid qiluvchisi tomonidan sotiladigan elektr energiyasining tariflari		
1	Energosavdo korxonasiga	704
2	Taqsimlash tizimi operatoriga yo‘qotishlarni qoplash uchun	843
3	Uzatish tizimi operatoriga yo‘qotishlarni qoplash uchun	735
IV. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va uning korxonalari tomonidan ko‘rsatiladigan elektr energiyasini taqsimlash xizmati tariflari		
1	“Qoraqalpoq HETK”	410
2	“Andijon HETK”	243
3	“Jizzax HETK”	300
4	“Qashqadaryo HETK”	171
5	“Navoiy HETK”	369
6	“Namangan HETK”	193

T/r	Korxona nomi	1 kVt-soat uchun tariflar (QQS hisobga olingan holda)
7	“Samarqand HETK”	278
8	“Surxondaryo HETK”	246
9	“Sirdaryo HETK”	245
10	“Toshkent HETK”	254
11	“Xorazm HETK”	286
12	“Toshkent shahar ETK”	276
13	“Buxoro HETK” AJ	276
14	“Farg‘ona HETK” AJ	366